



**O'ZKIMYOSANOAT**  
AKSIYADORLIK JAMIYATI

2025-yil 26-iyun

# **“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 18-iyul kuni o'tkaziladi**

## **“O'ZKIMYOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATI AKSIYADORLARI DIQQATIGA!**

“O'zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi 2025-yil 18-iyul kuni soat 15:00 da Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy (“O'zkimyosanoat” AJ ma'muriy binosi)da o'tkaziladi.

Umumiy yig'ilish qatnashchilarini ro'yxatga olish 2025-yil 18-iyul kuni soat 14:30 da boshlanib, soat 15:00 gacha davom etadi.

### **KUN TARTIBI:**

1. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi sanoq komissiyasi a'zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.
2. “O'zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining navbatdan tashqari umumiy yig'ilishi reglamentini tasdiqlash.
3. “O'zkimyosanoat” AJning 2024-yil yakuni bo'yicha olingan sof foydasini taqsimlash, dividend miqdori, uni to'lash shakli va tartibini belgilash.
4. “O'zkimyosanoat” AJning yangi tahrirdagi “Boshqaruvi a'zolariga ish haqi va rag'batlantirish to'lovlari to'g'risida”gi nizomini tasdiqlash.

Umumiy yig'ilish o'tkazilishi haqida xabar qilish uchun aksiyadorlar reestri 2025-yil 25-iyun holatiga hamda umumiy yig'ilishda qatnashish huquqiga ega aksiyadorlar reestri 2025-yil 14-iyul holatiga shakllantiriladi.

Umumiy yig'ilishda ishtirok etish uchun aksiyadorlar o'zi bilan pasport, aksiyadorlar vakillari esa – O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq rasmiylashtirilgan ishonchnoma bilan qatnashishlari so'raladi.

Umumiy yig'ilishni o'tkazishga tayyorgarlik ko'rilayotganda aksiyadorlarga taqdim etilishi lozim bo'lgan axborot (materiallar) bilan tanishish uchun quyidagi manzil va telefon raqamlariga murojaat qilishingiz mumkin: Toshkent shahri Navoiy ko'chasi, 38-uy, telefon: +(99878) 140-74-97, 140-74-98. E-mail: info@uks.uz

**“O'zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashi**

**source:**

"O'zkimyosanoat" aksiyadorlik jamiyati

<https://new.uzkimyosanoat.uz/oz/corporate/calendar/extraordinary-general-meeting-of-shareholders-of-uzkimyosanoat-joint-stock-company-will-be-held-on-july-18-2025>